ZOMIN TUMANI TABIATI, TURIZMINING RIVOJLANISH JARAYONLARI.

Xolmurodov Shakarbek Abdug’aniyevich
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” kafedrasi dotsenti, g.f.f.d., (PhD)., e-mail: XShakarbek81@gmail.com
Normatov Dilmurod Meliboy o‘g‘li
Guliston davlat universiteti “Ekologiya va geografiya” kafedrasi tayanch doktoranti, e-mail: normatovdilmurod15@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Zomin tumanining turistik salohiyati, tabiiy-geografik xususiyatlari hamda rekreatsion resurslari tahlil qilingan. Hudud Turkiston tog‘ tizmasining etaklarida joylashgani, toza tog‘ havosi va boy landshaftlari turizmni rivojlantirish uchun muhim omil ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada hududda ekoturizm va turizmning boshqa ziyoratgoh joylarda rivojlanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Turizm infratuzilmasidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Zomin tumani, ekoturizm, rekreatsiya turizmi, tabiiy resurslar, turizm salohiyati, madaniy landshaft.*

Kirish. Dunyo hamjamiyatida turizmning jahon xo‘jaligidagi hissasi yil sayin oshib, u eng muhim iqtisodiy tarmoqlar qatorida rivojlanmoqda. Mazkur soha dunyodagi ko‘pgina davlatlarning daromad manbai sifatida ularning milliy iqtisodiyotida asosiy o‘rin tutmoqda. Shu jihatdan O‘zbekistonda mazkur tarmoqqa e’tiborni kuchaytirish muhim masalalardan biridir. Mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo‘riqxonalar, tog‘li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi.

Mamlakatimiz hududida tabiiy, tarixiy va rekreatsion resurslarning xilma-xilligi turizmni rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, Zomin tumani ham tog‘li hudud bo‘lganligi sababli turizmni rivojlantirish uchun qulay hududlardan biri hisoblanadi.

Geografik o‘rni va tabiiy sharoiti. Zomin tumani Jizzax viloyatining janubi-sharqiy qismida joylashgan Turkiston tog‘ tizmasining shimoliy yonbag‘ir hududlarini egallaydi. Hududning fusunkor tabiati sababli Zomin tumani hududiga 2024 yilda xorijiy 6161 nafar, mahalliy 24 790 nafar, 2025 yilda xorijiy 7000 va mahalliy 27 000 nafardan ortiq sayyohlar tashrif buyurgan. [2]

Juda ko’plab rekrantlar oqimi asosan hududning relyefi asosan tog‘li va tog‘ oldi tekisliklaridan iboratligi sababli, tog’ havosi va archazorlaridan baxramand bo’lish uchun tashrif buyuradilar. Hudud iqlimi iqlim keskin kontinentaldir, to’satdan qisqa muddatli yomg’ir yog’ib o’tishi tabiiy xolga aylangan. Ko‘p yillik ma’lumotlarga ko‘ra o‘rtacha yillik yog‘in 404 mm ni tashkil etadi. Yozgi yog‘inlar yomg‘ir ko‘rinishida, tog‘ cho‘qqilarida qor shaklida tushadi. Baland tog‘liklar zonasida qor ko‘proq may va iyun oylarida kuzatiladi. Yanvar-fevral oylarida qorning qalinligi yarim metr va undan ham qalin bo‘ladi. Issiqlikning yuqori darajasi +33+35 gradus iyul va avgust oylarida kuzatiladi, dekabr-yanvar oylarida -15-20 gradusga tushadi, bahorgi ayoz may oyining oxirlarigacha davom etadi, erta kuzgi ayoz sentabr oyidan namoyon bo‘ladi. Tog’li qismga yaqin hududlarda qish barqaror va besh oy davom etadi.[3]

Qiyaliklarning past-balandligi, quyosh va shamol yo‘nalishi ta’siridagi relef shaklining turfaligi, vertikal hududlik mavjudligi quyosh nurlari va namlik tuproq paydo bo‘lishi va denudatsion jarayonlari xilma-xilligini barpo etadi, turli xildagi daraxtlar, xususan, qora archalar joylashuvi xususiyatini belgilaydi. Geobotanikada archa o‘rmonlari quyidagi ikki

kenglikka bo‘linadi: termofil va mikroterm archazorlari. O‘rmonchilik tadqiqotlarida (Muxamedshin, 1967, 1977) yuqori-iqlimli hududlik ro‘yxati uchun zarafshon archasi pasttog‘lik kenglikosti, yarimsharsifat archa hukmron o‘rtatog‘lik kenglikosti, turkiston archasining yuqoritog‘lik kenglikosti va turkiston archasining stlanik (yer bag‘irlab o‘sadigan buta o‘simlik) ko‘rinishidagi archasi subalp kenglikostiga bo‘linadi.[4]

Ajoyib iqlimidan tashqari noyob ziyoratgohlari va qadomjolari bilan ham mashhur, tuman hududiga kirib borishda **“Xo‘jai serob ota”** ziyoratgohi barpo etilgan. Zomin tumanidagi so‘lim Pishag‘ar qishlog‘ining yuqorirog‘ida bir ziyoratgoh maskan bor. Bu qadamjoni mahalliy aholi “Xo‘jai Serob ota ziyoratgohi” (“Suv boshining egasi”) deb atashadi. Atrofini yashilliklar va obihayot o‘rab turgan bu dargohga qadam qo‘yganingiz hamono, ko‘ngilni ajib bir osoyishtalik qamrab oladi. Go‘yoki, g‘am-tashvishga to‘la dunyo orqada qolib, betashvish olamga kirgandek his qilasiz, o‘zingizni. Teparoqda maqbara. Maqbara ro‘parasida masjid qad ko‘targan bo‘lib, ziyoratgohning xushhavo tabiatiga o‘zgacha shukh baxsh etgan. Xo‘jai Serob ota umrining oxiriga qadar ushbu maskanda yashab, bog‘dorchilik, uzumchilik bilan shug‘ullanib, halol mehnat ila kun kechirgan, shu bilan birga mahalliy aholi farzandlarini ilmu ma’rifatli qilgan komil inson ekanlar. Xalq orasida bu yerdagi buloqning shifobaxshligi, kimki undan yaxshi niyat bilan ichsa dardiga davo topishi, ham niyatiga yetishi haqidagi rivoyatlar hali hamon mashhur. Ziyoratgoh hududi 2,0 gektarni tashkil etadi va hozirda hududidagi buloqning suvidan Pishag‘or va Qangli qishlog‘ining 3 mingdan ziyod aholi suv ichmoqda. Mustaqillik yillarida ziyoratgoh obod etildi. Bunda Pishag‘ar qishlog‘ining Abdug‘ani Ilashev, Yunusxon Axmedov, Sa’dulla Qarshiboev kabi jonkuyar farzandlarining xizmatlari beqiyos. Ularning bevosita tashabbusi bilan 1997-2001 yillarda ziyoratgoh qayta ta’mirlandi va obodonlashtirildi. **“Archamozor ota” ziyoratgohi.** Zomin tumanidagi Yettikechuv qishlog‘idan yuqoriroqda, archazor bag‘rida, Yettikechuvsoy yoqasida joylashgan mazkur qadamjo shifobaxsh buloqlari bilan e’tibor topgan. Bu yerdagi qabristonga ming yilning yuzi bo‘lganligi aytiladi. “Archamozor ota”da XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida “Mulla Nazar Vali” degan kishi yashaganligi va shu yerga qo‘yilganligi qayd etiladi. **“Xoja Qahhor Vali”** qadamjosi. “Zomin” atamasi “Avesto”da tilga olingan “Zomyod” - farovonlik farishtasi nomi bilan bog‘lanadigan bo‘lsa, mazkur shaharning tarixi zardushtiy ota bobolarimiz zamonasi bilan, eramizdan avvalgi VII-V asrlar bilan o‘lchanadi. Zomin shaharchasining o‘rtasida ajoyib yodgorlik majmuasi joylashgan. “Xoja Qahhor Vali” majmuasiga kiruvchi “Xolid ibn Bolid” masjidi ayvoni oqbuloqlik Boy Eshon tomonidan usta Hakim qo‘li bilan bunyod etilgan. Bobotut daraxtining yoshi ikki ming yildan kam emas.[5]

Turizm infratuzilmasi va muammolar. “Zomin” turistik rekreatsion zonasi alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud hisoblanganligi va hududda tabiiy geografik rekreatsiya resurslar joylashganligi sababli, barcha obyektlarni loyihalash va qurishda qat’iy ekologik me’yorlarga rioya etish zarur hisoblanadi. Bunda Zipline xizmati, Jumping xizmati, Skololaz devori, Ko‘ngil ochar bog‘, Zamonaviy selfi zonasi hamda turistlarni joylashtirish vositasi sifatida 21 ta 3 yulduzli, 15 ta 4 yulduzli, 4 ta 5 yulduzli mexmonxonalar (11 544 o‘rin), 201 ta Shale uylari (2026 o‘rin), 19 ta aportament uylari (2700 o‘rin), 15 ta turar-joylar (3300 o‘rin), kongress markazi, davolash va SPA, shuningdek, restoran, kafe va barlarni loyihalash hamda xizmat korsatish borasida zamonaviy strategiyalar va turistik yo‘nalishlarning barqarorligini ta’minlash bilan rekreantlar oqimining oshishi hal qiluvchi rol o‘ynaydi [6].

Hududda turizm infratuzilmasi rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, transport xizmat ko‘rsatish darajasi va marketing faoliyatining yetarli emasligi Zomin milliy tabiat bog’idagi dam olish maskanlarida basseyn ya’ni suzish havzasi yitishmasligi turizm rivojiga to‘sqinlik qilmoqda.[7]

Rivojlanish istiqbollari. So‘ngi yillarda Bulung‘ur-Baxmal-Supa (Suffa) yo‘lining ochilishi Baxmal va Zomin tumanlarining chekka tog‘li hududlaridagi qishloqlar infratuzilmasining rivojlantirilishi, ushbu hududlarda rekreatsiya zonalar va rekreatsiya obyektlarining barpo etilishi yangi ish o‘rinlarning yaratilishi bilan birga hududga rekreantlar oqimining jadallik bilan rivojlanishi uchun asos bo‘ldi.[8]

Bu yo’lning ochilishi Zomin tumanida turizmni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Tog‘lar orasidan va tekislikdan o’tgan bu yo’l tuman turizmining asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, infratuzilmani ham yaxshilash va investitsiyalarni jalb qilish orqali hududni yirik turistik markazga aylantirish mumkin. Asosan madaniy landshaftlar joylashgan hudud infratuzilmasini yaxshilash yani ularning transport qatnovi uchun yo‘llarni yanada yaxshilash yani Zomin sanatoriyasidan tashqari ziyoratgohlarga rejalashtirilgan avtomabil yo’llari va turargohlarini qurilishi va turistlar kelishi uchun servis xizmatini yanada takomillashtirish va arzonzoq yotoq joylari, sifatli servis xizmatlari taqdim qilish kerak hamda tog‘ etagida joylashgan ziyoratgohlar borligi va o’ziga xos ajralib turishi sababli tog‘ turizmini ham rivojlantirishi uchun investitsiya kiritilishi lozim, “Xo‘jai serob ota” ziyoratgohi va “Peshag’or” g’ori uchun ham servis xizmatini kuchaytirishi va kanatlar, oynali ko‘priklar qurilishi uchun investitsiyalar ajratilishi hamda ikki ziyoratgoh uchun ham eng asosiy muammolardan biri xisoblangan reklamani kuchaytirishi ayni muammoning katta qismini hal qiladi.

Xulosa Xulosa qilib aytganda, Zomin tumani tabiiy va madaniy resurslarga boy hudud bo‘lib, turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Ilmiy asoslangan yondashuv va samarali boshqaruv orqali bu hududda turizmni yuqori darajaga olib chiqish va yangi turizm obyektlari, maskanlarini yanada kengaytirish zarur. Bu esa tuman iqtisodiyotiga hamda viloyatdagi yoshlarni xizmat ko‘rsatish soxasida band bo‘lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston milliy atlasi. - Toshkent.: “O‘zbekiston milliy atlasi” nashriyoti, 2019. 30-31 betlar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. - Rasmiy ma’lumotlar. Turizmni rivojlantirish bo‘yicha statistik va tahliliy materiallar. - 2025-2026-yillar.

3. Zomin milliy tabiat bog‘i rasmiy sayti. https://npzaamin.uz/. 2025-2026 yil.

4. Zomin davlat o’rmon xo’jaligi. - Hududning tabiiy resurslari va ekoturizm imkoniyatlari bo‘yicha ma’lumotlar. - 2025-2026-yillar.

5. Maqola: “Zomin tumanning madaniy-tarixiy turistik resurslari salohiyatidan foydalanish imkoniyatlari” Fayzullayev M.M., Yarlixabova S.S. 2026-yil 25-26-sentyabr Navoiy davlat universiteti Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 457 bet.

6. Jizzax viloyati turizm hududiy bo‘limi ma’lumotlari. Jizzax 2025.

7. Xolmurodov Sh.A. va Normatov D.M. tomonidan tashkil etilgan dala tadqiqot ekspeditsiyasi o’rganish so’rovnoma ma’lumotlari. 2026 yil. 15-16 iyul.

8. Холмуродов, Ш.А. (2021). Туркистон-Нурота тизмаси тог ландшафтларининг рекреация имкониятларини бахолаш. Геог. фан. буй. фал. док дараж. олиш ун так. этил. дисс. автореф.